# PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

***Niyazov Akmal Erkinovich***
*Osiyo xalqaro universiteti magistri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etishning metodik asoslari ko'rib chiqiladi. Dual ta'limni joriy qilish jarayonida ilmiy-metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va amaliyotning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Maqolada dual ta'limning mohiyati, afzalliklari va uning professional kadrlarni tayyorlashdagi o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** dual ta'lim, professional ta'lim, metodik asoslar, amaliyot, nazariya, integratsiya.

## Kirish

Bugungi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida malakali kadrlarni tayyorlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, dual ta'lim modeli zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dual ta'lim nazariya va amaliyotni uzviy bog‘laydigan tizim bo‘lib, talabalarni haqiqiy ish sharoitlariga tayyorlashga qaratilgan.

Professional ta’lim tizimi bugungi kunda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Dual ta’lim modeli esa mehnat bozori ehtiyojlariga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlashning samarali usuli sifatida tan olinmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — dual ta’limni tashkil etishda foydalaniladigan metodik yondashuvlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**Abstract:** This article examines the methodological foundations of organizing dual education in the professional education system. In the process of implementing dual education, the integration of scientific and methodological approaches, modern technologies and practice is of great importance. The article highlights the essence, advantages of dual education and its role in training professional personnel.

**Keywords :** dual education, professional education, methodological foundations, practice, theory, integration.

## Login

Today, the issue of training qualified personnel in various sectors of the economy remains relevant. In this regard, the dual education model plays an important role in the formation of knowledge and skills that meet modern requirements. Dual education is a system that seamlessly connects theory and practice and is aimed at preparing students for real working conditions.

The vocational education system today plays an important role in ensuring the economic and social development of society. The dual education model is recognized as an effective method of training qualified personnel who meet the needs of the labor market. The purpose of this article

is to analyze the methodological approaches used in organizing dual education and develop recommendations for their improvement.

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются методологические основы дуального образования в системе профессионального образования. В процессе внедрения дуального образования важна интеграция научно-методических подходов, современных технологий и практики. В статье описаны сущность, преимущества дуального образования и его роль в подготовке профессиональных кадров.

**Ключевые слова :** дуальное образование, профессиональное образование, методические основы, практика, теория, интеграция.

**Входить**

Сегодня вопрос подготовки квалифицированных кадров в различных отраслях экономики остается актуальным. В связи с этим модель дуального образования важна в формировании знаний и умений, отвечающих современным требованиям. Дуальное образование – это система, объединяющая теорию и практику и направленная на подготовку студентов к реальным условиям труда.

Сегодня система профессионального образования играет важную роль в обеспечении экономического и социального развития общества. Модель дуального образования признается эффективным способом подготовки квалифицированных кадров, соответствующих потребностям рынка труда. Целью данной статьи является анализ методических подходов, используемых при организации дуального образования, и разработка рекомендаций по их совершенствованию.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Dual ta'lim modeli Germaniya, Avstriya, Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan bo‘lib, u yerda amaliyot va nazariyaning uyg‘unligi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, dual ta'lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat nazariy jihatdan, balki ishlab chiqarish jarayonlarida ham ishtirok etishga imkon beradi. Metodologiya sifatida kuzatish, eksperiment va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Mahalliy adabiyotlarda dual ta’lim tizimini o‘zlashtirish jarayonidagi muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekistonda dual ta’limni joriy etish bo‘yicha dastlabki amaliyotlar va ularning natijalari o‘rganilgan (Karimov, 2022).

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidaro'y berayotgantarkibiy o'zgarishlarning jadal sur'atlari mamlakatdagi mavjud tarixiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, ushbu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi kerak bo'lgan yuqori sifatli o'rta bo'gin mutaxassislarga talabni oshiradi.

Amaliyot, iqtisodiy manfaatlar, mamlakatimizning jadal rivojlanish yo'llari, professional ta'limning 'limning maqsadi, usullari va mazmunini belgilab berishi kerak. Hozirgi davrda o'qitishning dual tizimi nazariy va ishlab chiqarish/amaliy mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida

amalga oshiriladigan dunyodagi professional va texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biridir.

Bu o'quvchilarning kasbiy ta'limida korxonalarning bevosita ishtirokini o'z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o'quvchilar uchun har oylik to'lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanadi. Ta'lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonunining

15-moddasida dual ta'lim, ta'lim olish shakli sifatida qabul qilindi. Ushbu qonunning 17-moddasida Dual ta'lim - ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida 2021-yil 29- martdagi 163-son qarori bilan "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi.

Ushbu nizomda dual ta'limni tashkil etish va tashkilot, professional ta'lim muassasasi va o'quvchilarning vazifalari, huquqlari hamda majburiyatlari belgilab berildi. Professional ta'limda sifat o'zgarishiga olib keladigan turli tizimlarning (fanva ta'lim, fan va ishlab chiqarish) o'zaro bog'liqligi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini mustahkamlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son qarori asosida professional ta'lim muassasalari faoliyati tartibga solinadi.

Professiolnal ta'lim tizimida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab dual ta'lim joriy qilinmoqda. Bu o'z navbatida amaliyotga yo'naltirilgan va moslashuvchan ta'lim dasturlarini joriy etishni taqozo etadi. Bunda professional ta'lim dasturlari ta'lim natijalariga va kasbiy kompetentsiyalarga asoslangan bo'lishligi nazarda tutiladi. Ushbu tavsiyalar professional ta'lim tizimida o'quv jarayonini intensivlashtirish, o'quv davrlarini optimallashtirish va o'quvchilarning shaxsiy ta'lim traektoriyalarini yaratishning me'yoriy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida tayyorlandi.

Uslubiy tavsiyanoma professional ta'lim muassasalarida mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda dual ta'limni tashkil qilishga yo'naltirilgan ishchi o'quv reja tuzish asosida nazariy va amaliy ta'lim jarayonlarini hamda davlat attestatsiyalarini rejalashtirishga yordam beradi.

**Natijalar**

Dual ta’lim tizimi — bu nazariy va amaliy bilimlarni bir vaqtning o‘zida o‘qitish imkonini beradigan ta’lim shaklidir. Bu tizim professional ta’lim sohasida talabalar uchun ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar olindi:

1. Dual ta'lim tizimi nazariya va amaliyotning samarali integratsiyasini ta’minlaydi.
2. Talabalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashish orqali real ish sharoitlarini tushunadi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.
3. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik o‘quvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi.

**Muhokama**

Dual ta’lim tizimi professional ta’limning samaradorligini oshirish va talabalarni ish bozoriga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, bu tizimni kengroq joriy etish orqali o‘quvchilar va korxonalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish mumkin.

Dual ta'limning joriy etilishi ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatishni talab etadi. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari va treninglar o‘qituvchilar uchun yangi metodikalarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Korxona va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi shartnomalar, amaliyot dasturlarining muvofiqlashtirilishi va nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishi zarur.

**Xulosa**

Dual ta'lim tizimi professional ta'lim samaradorligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu tizim talabalarni mehnat bozoriga moslashuvchan va malakali qilib tarbiyalaydi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida dual ta'limni joriy qilishni yanada rivojlantirish uchun metodik asoslarni takomillashtirish zarur. Dual ta’lim professional ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat, ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Kelgusida dual ta’limni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Müller, H. (2019). *Dual Education in Europe: Success Factors and Challenges.* Springer.
2. Schmid, P. (2021). *Innovations in Vocational Training: Dual Models in Practice.* Routledge.
3. Karimov, A. (2022). O‘zbekistonda dual ta’limni joriy etishning dolzarb masalalari. *Ta’lim va fan rivoji*, 4(3), 45-53.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2021). Professional ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida.